

**NAVOIY VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINI
RIVOJLANISH MASALALARI**

Suyunov Shuxrat Muxitdinovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, assistent

telefon raqami: +99888-559-19-77

E.mail: shukhratsuyunov777@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari, kichik biznesni milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta'minlash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali uning tengsizligini yumshatish hamda o'rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishdagi afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, rag'bat, mulk, faol sub'yektlar, o'sish strategiyasi, gender tarkib, yuqori kredit stavkasi, yuqori soliqlar, shaffof emaslik va byurokratik tender jarayonlari, texnologiyalar va uskunalar haqida ma'lumotdan foydalanish imkoniyati.

Аннотация: В данной статье описаны направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства в регионе, роль и значение малого бизнеса в национальной экономике через экономические показатели. Выявлены преимущества малого бизнеса и частного предпринимательства в быстрой адаптации к рыночной среде, обеспечении занятости, получении доходов и тем самым сокращении неравенства, а также поиске решения для среднего класса собственников.

Ключевые слова: малый бизнес, стимул, собственность, активные субъекты, стратегия роста, гендерный состав, высокая кредитная ставка, высокие налоги, отсутствие прозрачности и бюрократичность тендерных процессов, доступ к информации о технологиях и оборудовании.

Abstract: This article describes the directions of development of small business and private entrepreneurship in the region, the role and importance of

small business in the national economy through economic indicators. The advantages of small business and private entrepreneurship in quickly adapting to the market environment, providing employment, generating income and thus reducing inequality, as well as finding a solution for the middle class of owners have been revealed.

Keywords: *small business, incentive, property, active entities, growth strategy, gender composition, high credit rate, high taxes, lack of transparency and bureaucratic tender processes, access to information about technologies and equipment.*

Kirish

Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. Mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi kichik biznes sub'yektlarining rag'bat asosidagi faoliyatini ta'minlashga olib kelmoqdaki, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes sub'yektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu bilan birgalikda aholi daromadlarini oshirishning muhim omili va mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlanuvchi kuch hisoblanadi. Viloyatimiz hududida qulay tadbirkorlik muhitini yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarini qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes sub'yektlarining moliya-kredit va xom-ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tadbiq etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish chora-tadbirlari sifatida amalga oshirib kelinmoqda. Shuni ta'kidlash

joizki, yo'lga qo'yilgan islohotlardan asosiy maqsad riviloyat aholisini tadbirkorlik sohasiga keng ko'lamda jalb etishni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida xususiy biznesning rolini sifat jihatidan oshirishdir. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy sabablaridan biri aholi sonini muttasil ravishda o'sib borishi va ularni ish bilan bandligini ta'minlashdir. Bu borada yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa – mamlakat ham boy bo'ladi". Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki xar bir insonning yuksalib borayotgan xayotiy extiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya'ni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziqovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal o'sishini ta'minlash, xususiy mulkni ximoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ba'zi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, respublikamizda investisiya va ishbilarmonlik muhitini sifat jixatidan yangibosqichga ko'tarish orqali xalqaro me'yorlarga to'liq javob berishini ta'minlashda o'z aksini topadi.

Asosiy qism.

Keyingi yillarda viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlarni olish tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi, tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda halol tadbirkorlik sub'yektlari uchun dunyo bozorlari eshiklar keng ochilgan. Berilgan qator imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanib, o'z faoliyatini qonuniy amalga oshirayotgan

har qanday tadbirkorlik sub'yekti qonun himoyasidadir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilinayotgan qonun xujjatlarining mazmun mohiyatini keng targ'ib etish, tadbirkorlik sub'yektlarining huquqiy va iqtisodiy bilimlarini oshirishga ko'maklashish maqsadida Savdo-sanoat palatasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 45 ta seminar, konferentsiya, biznes forum va o'quv kurslari tashkil qilinib, mazkur tadbirlarda jami 1783 nafardan ziyod tadbirkorlar hamda tadbirkorlik qilish istagidagi yoshlar ishtirok etdilar. Boshqarma qoshidagi "Navoiy viloyati tadbirkorlikka ko'maklashish markazi" unitar korxonasi tomonidan 2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida 26 marotaba (shundan 13 tasi online tarzda) seminar va malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu o'quv kurslari biznes bilan tanishuv va tadbirkorlik faoliyatini boshlash, kichik korxonalarni tashkil etish va boshqarish biznesni yuritish va uning qonuniy asoslari, soliq va soliqqa tortish tizimi, eksport va import amaliyoti, hisobotlarni elektron tarzda shakllantirish va nazorat organlariga taqdim etish kabi yo'nalishlarda tashkil etilib, ularda jami 825 nafar ishtirokchi qatnashgan. Bugungi kunda Navoiy viloyatida 17 670 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Tahlillarimizni quyidagi jadval ma'lumotlari yordamida davom ettiramiz.


1 –jadval.

Navoiy viloyati bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

№	Tarmoqlar	Ro'yxatga olingan				Faol			
		2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'zgarish sur'ati, 2024 yilni 2022 yilga nisbati, % da	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'zgarish sur'ati, 2024 yilni 2022 yilga nisbati, % da
1	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 652	3 196	3 435	129,52	2 570	3 060	2 437	94,82
2	Sanoat	3 766	4 178	4 352	115,56	3 612	3 957	3 068	84,94
3	Qurilish	1 736	1 836	1 918	110,48	1 675	1 761	1 372	81,91
4	Savdo	8 161	9 116	10 111	123,89	7 875	8 685	8 074	102,53

5	Tashish va saqlash	743	846	931	125,30	713	816	769	107,85
6	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 451	1 622	1 735	119,57	1 400	1 540	1 255	89,64
7	Axborot va aloqa	260	319	368	141,54	246	302	285	115,85

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatimizda 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 28521 ta tadbirkorlik sub'yektlari ro'yxatga olingan bo'lib, bu 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 20,88 % ko'payganligini ko'rsatmoqda. Faol tadbirkorlik sub'yektlari ham avvalgi yilga nisbatan 13,1 % ga kamayib, 21880 tani tashkil etdi. Bu yerda o'sish va kamayish strategiyalari foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatimizdagi tadbirkorlik sub'yektlarini minglab rahbar xodimlar boshqarib kelmoqdalar. Ayol rahbarlar boshqaruvida 1321 ta, erkak rahbarlar boshqaruvida esa 235200 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud. Uning ulushini quyidagi diagrammada ifodalaymiz.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik faoliyatida gender tarkibi ko'rsatkichi.

Yuqoridagi diagrammadan ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatini boshqaruvida ayol rahbarlar erkak rahbarlarga nisbatan deyarli 17,56 marotaba kamdir. Bundan xulosa qilish mumkinki, ayollarning tadbirkorlik faoliyatini olib borishdagi tarkibi kam, uni yangi ayollarni ish bilan ta'minlash, ular uchun yangi ish o'rinlarini ochish lozimligini ko'rsatadi. Demak, tadbirkorlik faoliyatida ayollar safini yanada kengaytirilsa, ularning bandligini oshirish va jamiyatdagi faolligini

yanada oshirishga xizmat qilar edi deb o'ylaymiz. Rahbarlar boshchiligida kichik biznes sub'yektlari turli mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar va xizmatlar ko'rsatib kelmoqdalar. Mahsulot va xizmatlar hajmi ko'rsatkichlarini quyidagi jadval ma'lumotlari yordamida tahlil etib o'tamiz

2-jadval

Navoiy viloyatida kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

№	Tarmoqlar	2022-yil	2023-yil	2024- yil	O'zgarish sur'ati, 2024 yilni 2022 yilga nisbati, % da
1	Sanoat (mlrd.so'm)	6070,5	7863,1	7 930,6	130,64
2	Qurilish (mlrd.so'm)	4706,6	5427,9	6147,8	130,62
3	Bandlik (ming kishi)	208,3	222,1	223,7	107,39
4	Eksport (mln.AQSH. doll)	50,7	60,3	59,3	116,96
5	Import (mln.AQSH. doll)	224,0	246,8	129,7	57,90
6	Savdo (mlrd.so'm)	9496,1	11572,1	9164,2	96,50
7	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	15686,1	19114,9	14884,8	94,89
8	Xizmatlar (mlrd.so'm)	5431,7	6643,6	7923,4	145,87
9	Yuk tashish (mln.tonna)	32,8	33,6	23,4	71,34
10	Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	813,4	815,2	590,5	72,6
11	Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)	150,9	150,3	113,5	75,22
12	Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	3733,0	3711,9	2790,5	74,75

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, 2024 yilda viloyatimiz kichik biznes sub'yektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish ishlari, aholini ish bilan ta'minlash, eksport operatsiyalari va xizmatlari ko'rsatkichlari 2022 yilga nisbatan ortgan. Biroq, jadval ma'lumotlari kichik biznes sub'yektlari tomonidan bajarilgan import operatsiyalarini bajarishda, savdo, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, yuk tashish va yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish, yo'lovchi aylanmasi hajmida 2022 yilga nisbatan pasayish bo'lganligini

ko'rsatmoqda. Bu esa biznes birligi va sotish, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish va baholash strategiyalaridan ushbu tarmoqlarda samarali foydalanilmaganligini ko'rsatmoqda. Kichik biznes sub'yektlar faoliyatidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sohada ayrim muammoli masalalar bo'lib, bu sohani rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Jumladan, bu muammolarga quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: yuqori kredit stavkasi, yuqori soliqlar, shaffof emaslik va byurokratik tender jarayonlari, texnologiyalar va uskunalarni haqida ma'lumotdan foydalanish imkoniyati, nazorat organlar bilan muammolar, mahsulotlarni sertifikatlash muammolari, litsenziyalash muammolari, soya (yashirin) biznesi tomonidan adolatli raqobatga to'siq qo'yilishi va boshqa shu kabilar.

Xulosa va tavsiyalar

1. Mamlakatimizda xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini, kichik biznes sub'yektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlab beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi.

2. Kichik biznes sub'yektlari jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi mavjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari yaratib, aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali: – o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi; – makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchilik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi; – sog'lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YAIMning miqdor va sifat jihatidan o'sishi kuzatiladi; – ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to'yinadi va ularning sifati oshadi; – pirovardida aholi turmush darajasining o'sishiga erishiladi. Kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Soliq tizimini tartibga solish va bank tizimini tartibga solish masalalari, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mavjud muammolarga e'tiborni kuchaytirish.

2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy to'siqlarni bartaraf etish – malakali kadrlar salohiyatini oshirish, investorlar uchun kerakli ma'lumotlar bankini shakllantirish, shuningdek, mahalliy hokimiyatlarning mazkur sohaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.

3. Xom ashyolarlardan samarali foydalanish yo'llarini kengaytirish.

4. Ma'muriy xarajatlarni qisqartirish uchun davlat va kichik biznes sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni raqamlashtirish;

5. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, o'z biznesni boshlamoqchi bo'lganlarga tadbirkorlik asoslari bo'yicha bilimlar berish va boshqa shu kabilar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergasheva Fotima Ibragimovna, & Ismoilova Gulnoza Ravshanjonovna. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING UMUMIY IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH DINAMIKASI. Yangi O'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 189–195.
2. Muhammadjonov, B.B. O.L., & Xudayberdiyev, O.A. (2022). O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK SANOAT HUDUDLARI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 265-273.
3. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN"

PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).

4. Эргашева Фотимахон Ибрагимовна, & Охунжонова Мадина Исоқжоновна. (2024). КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ. Yangi O'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 196–204.
5. Navoiy viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.*navstat.uz*.
6. Abdusalomov, M. (2024). INTEGRATION OF AI AND BUSINESS FOR A SUSTAINABLE FUTURE. *DTAI–2024, 1(DTAI)*, 335-337.
7. Abdusalomov, M. (2024). Revolutionizing Classrooms: The Role of AI in Personalized Learning and Student Engagement. *DTAI–2024, 1(DTAI)*, 402-404.
8. Bahronova, S. (2024). THE INFLUENCE OF INVESTMENTS ON INNOVATIVE ACTIVITIES IN ENTERPRISES ON THE PROFITABILITY OF ASSETS. *DTAI–2024, 1(DTAI)*.
9. Shirinova, S. A. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BARQAROR IQTISODIY O‘SISH GAROVI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 689-692.
10. Farmonov, D. B., & Jalilov, A. Z. More Development of Banks' Monetary, Crypto Currency and Blockchain Policy in the Digital Economy. *JournalNX*, 193-197.
11. Rashidov, M. K. (2021). ANALYSIS OF REGIONAL CONDITIONS FOR THE LOCATION OF FREE ECONOMIC ZONES. In *Стратегические инициативы и практические рекомендации по устойчивому развитию экономики: потенциал и риски* (pp. 164-170).
12. Rashidov, M. K. (2021). The urgency of improving the functioning of free economic zones in the regions. *Экономика: анализы и прогнозы*, (2), 13-21.
13. Karimovich, R. M. (2022). RELEVANCE OF DIGITALIZATION OF ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC AND SMALL INDUSTRIAL ZONES. *Архив научных исследований*, 5(5).

14. Атамурадов, Ш. (2023). ИННОВАЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ВЕНЧУР ФОНДЛАРИ ОРҚАЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ВА УНДА УЧРАЙДИГАН ТАВАККАЛЧИЛИК ТУРЛАРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 24-35.
15. Атамурадов, Ш. А. (2022). ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАР ТАҲЛИЛИ. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 3(4), 19-24.
16. Sodiqovich, X. S. (2024). ISSUES OF ACCOUNTING AND ANALYTICAL SUPPORT OF PRODUCTION PROCESSES OF TRANSPORT ENTERPRISES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 13(02), 34-40.